

PIRIMQUL QODIROVNING "ONA LOCHIN VIDOSI" ASARIDA QO'LLANILGAN TARIXIY VA ARXAIK SO'ZLAR

Usarova Aziza Ulmas qizi

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
lingvistika (o'zbek tili) yo'nalishi, 1-kurs magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tarixiy va arxaik so'zlar nima ekanligi va bu adib uchun, badiiy asar uchun qanchalik muhimligi ko'rsatiladi. Eskirgan so'zlardan foydalanish yozuvchining poetik individualligini ta'minlovchi vositalardan biri ekanligi va bu vosita adibning mahoratini ochib berolishini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, maqolada bir qancha tarixiy va arxaik so'zlarning izohi keltiriladi, hamda bu so'zlar personaj nutqining xarakter-xususiyatini ham yaqqol namoyon qiladi.*

Kalit so'zlar: *eskirgan so'zlar, tarixiy so'zlar (istorizm), arxaik so'zlar (arxaizm), tushuncha, so'z, badiiy asar tili, poetik individuallik, izdihom, chopqin.*

Аннотация: *В данной статье показано, что такие исторические и архаические слова и насколько они важны для писателя и художественного произведения. Мы видим, что употребление устаревших слов является одним из средств, обеспечивающих поэтическую индивидуальность писателя и что этот инструмент раскрывает мастерство писателя. Также в статье поясняются некоторые исторические и архаичные слова, в этих словах раскрывается характер речи персонажа тоже четко видно.*

Ключевые слова: *устаревшие слова, исторические слова (историзм), архаические слова (архаизм), понятие, слово, язык художественного произведения, поэтическая индивидуальность, толпа, спешка.*

Abstract: *This article shows what historical and archaic words are and how important they are for a writer and a work of art. We can see that the use of obsolete words is one of the tools that ensure the poetic individuality of the writer and that this tool reveals the skill of the writer. Also, the article explains some historical and archaic words, and these words show the character of the character's speech. also clearly shows.*

Key words: *obsolete words, historical words (historiism), archaic words (archaism), concept, word, language of artistic work, poetic individuality, crowd, rush.*

Til- bu ijtimoiy hodisa bo'lganligi sababli uning faoliyati va rivojlanishi ham jamiyatda bo'layotgan har qanday kichik o'zgarishga chambarchas bog'liq. Mana necha ming yil, asrlardan beri tilimiz sayqallanib, o'zgarib bormoqda. Zamonga hamnafas yashash barobarida biz tilimizdagi ba'zi so'zlarni unitamiz, ba'zilarini esa qaytadan kashf qilamiz. Ya'ni bu bilan aytmoqchimizki, tilning turli davrlari va uning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ma'lum bir davrdagi til birliklari keying davrga, afsuski, butunlay tushunilmaydigan so'zga aylanib qoladi. Masalan, qadimgi turk davriga xos

bo'lgan inak, budun, o'kush, o'z kabi so'zlar keyingi davrga borib o'zining tub ma'nosini yo'qotdi. Budun so'ziga to'xtaladigan bo'lsak, qadimgi turkiy tilda X- XI asrlarda "xalq, el, ulus" ma'nosida juda keng qo'llangan. XV asrda esa bu so'zning o'rniga aksar hollarda "raiyat" so'zidan foydalanishgan. "Bu ikki xayldin har biri bir af'i, shohg'a vojibdur bularning daf'i. Bular, jumlası chıyonlar, xaloyiqqa yetkurur ziyonlar. Kilklari no'g'i agrab nishi, raiyat jonig'a ul nish tashvishi. Necha bu nish mazlumlarg'a sanchilg'ay, umid ulki, boshlari ajal toshi bila yanchilg'ay." Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asaridan keltirilgan ushbu misol fikrimizning dalilidir. Albatta, tilni o'rganish va tahlil qilish jarayonida, uni shunchalar ko'p o'rganishganki, unga turli tomondan turli ko'zlar bilan qarashgan va jarayon hali ham davom etib kelmoqda. Ammo mening nazdimda, bunday o'rganishlarning barchasi faqatgina "Til-ijtimoiy hodisa" degan birgina ta'rifning zamirida mujassamdir. Ya'ni, u ijtimoiy hayot, jamiyatdagi o'zgarishlar, dinlar, udumlar va marosimlarga to'raligicha aloqadordir. Keltirilgan "budun" va "raiyat" so'zlari hozirgi kunda o'z o'rnini "xalq" so'ziga bo'shatib bergan. Bu so'zning eski muqobillari esa mutaxassislardan boshqa soha vakillari tomonidan tushunilmaydi. Bundan tashqari, tilimizda shunday so'zlar borki, so'zning o'zi ham, u anglatayotgan tushuncha ham tilning leksik qatlamidan butunlay chiqib ketgan bo'ladi. Misol tariqasida, bakovul so'zini tahlilga tortaylik. Bakovul-1.podshoh, xon va lashkarlarga ovqat tayyorlash ustidan nazorat olib boruvchi, hukmdorga taom tortishdan oldin uni avval o'zi totib ko'ruvchi mansabdor; bosh oshpaz (XV asr va undan keying davr). 2.Oltin o'rda xonligida qo'shinga maosh ulashish, o'ljalarni taqsimlash singari vazifalarni bajaruvchi yuqori mansabdor.[4] Izohli lug'atda bakovul so'zining yuqorida keltirilgan bu ikki ma'nosi o'zining bakovul degan so'zini ham, u anglatayotgan oshpaz, mansabdor shaxs tushunchasini ham bildirayotgani yo'q. Demochimizki, ushbu so'z iste'moldan chiqishga ulgurgan va adabiy tilimizda o'z ahamiyatini qadrini yo'qotgan. Shu kabi ko'plab so'zlarning leksik qatlamimizdan butunlay chiqib ketishiga, yoki so'z shaklini boshqa so'z shakliga o'zgartirishga, albatta, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, siyosiy o'zgarishlar sabab bo'lmoqda. Endilikda bu tushuntirilgan nimarsalarni biz linvistika nuqtayi nazaridan qarasak va baholasak.

Tilshunoslikda eskirgan so'zlar degan bo'lim borki, M.T. Irisqulov ta'biri bilan aytganda, ishlatilishdan chiqib ketgan so'zlar, unda iste'moldan butunlay chiqib ketgan so'zlarni va bir so'z o'rniga boshqasi qo'llanilayotgan so'zlarni o'z ichiga qamrab oladi. Eskirgan so'zlarni ikkiga bo'lishimiz mumkin: tilning hozirgi davri uchun eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan til birligi arxaizm deb yuritiladi. Bunda ma'lum narsani nomini aytish uchun uning ilgarigi nomidan voz kechiladi. Masalan, oblast (viloyat), dudoq (lab), ochun (dunyo) kabi. Hozirgi kunda o'z sinonimiga ega bo'lmagan, o'tmishga oid narsa hodisalarni ifodalagan til birligi esa tarixiy (istorizmlar) so'zlardir.[3] Jallod, yasovulboshi, yuzboshi singari so'zlarni kiritishimiz mumkin. To'g'ri, bunday eskirgan so'zlarning nutq faoliyati davomida o'rni unchalik ahamiyatli bo'lmasligi mumkin.

Ammo, nafaqat lingvistika, balki adabiyot sohasi doirasida ham bunday deya olmaymiz. Tarixiy va arxaik so'zlardan foydalanish ijodkorning poetik individualligini ta'minlovchi va so'z qo'llash mahoratini ko'rsatib beruvchi eng muhim omillardan biridir. Navoiy, Bobur, Lutfiy va boshqa tarixiy siymolar asarlarida va shuningdek, Tolstoy, Dostoyevskiy va Mayakovskiy asarlarida ko'plab arxaizmlarni uchratamiz.[1]

Qalamkash tarixiy mavzuga murojaat etar ekan, o'sha davr madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy hayotni yorqin aks ettirish uchun bevosita o'sha davr tilini ochib berolishi lozim. Aks holda asar o'z badiiyligini yo'qotadi. [2] O'zbek adabiyotida bir qancha yozuvchilarimiz tarixiy mavzularga murojaat qilib turli davrlarga oid asarlar yaratishgan. Mirkarim Osim, Oybek, Maqsud Shayxzoda kabi ijodkorlar bu sohaga qo'l urishgan va muvaffaqiyatli yakunlashgan. Ular tarixiy mavzuda asar yozar ekan, o'zining qahramonlari tilini o'sha davrga mos tarzda bayon etishganki, albatta, bu asar badiiyligini ta'minlaydigan va o'quvchiga estetik zavq bera oladigan asarlar sirasiga kirita olamiz. Keling, mana shunday tarixiy davrni va qahramonlarni bizning ongimizga siymosini muhrlagan mahoratli yozuvchimiz asarini tahlilga tortsak.

Mustaqillik davri adabiyoti vakili Pirimqul Qodirov temuriylar sulolasini ko'p bor qalamga olganligi bizga ma'lum."Yulduzli tunlar", "Humoyun va Akbar", "Ona lochin vidosi" asarlarida nafaqat temuriylar, boburiylar sulolasining ichki nizolar-u besabab qon to'kishlar oqibatida yemirilishini, balki shohlarning ichki kechinmalarini o'y-xayollarini, temuriylar xonadonidagi maliklarning aql-u farosatini qalamga olar ekan, o'z nutqida va personajlar nutqida tarixiy va arxaik so'zlardan ustomonlik bilan foydalanganligini ko'ramiz. Amir Temurning kelini nomiga putur yetkazmagan, o'zini kimligini unutmagan kuchli, sabr-u toqatli ayol, Shoxrux Mirzoning suyukli rafiqasi, Gavharshodbegim haqidagi "Ona lochin vidosi" asarida obrazning xarakterini ochib berish uchun asarda eskirgan so'zlar o'z o'rnida foydalanilgan. Yasovulboshi, panjhezora, bek atka, devonbegi, devonboshi, chopar, sipohi, suvoriy, ahli sahf, amir, olampanoh, hazrat begim, hazrat momo, mudarris, musharif, mutavalli, jallod, kanizak kabi tarixiy so'zlar asar badiiyligini ta'minlagan birlamchi vositalardan bir bo'lgan. Asarda, shuningdek, "Mahdi Ulyo" deb Gavharshodbegimni ulug'lagan bo'lsa, o'z iniga qarab ulugan qo'tir tulkini, Abdulatifni "padarkush" deya qoralaydi. Kajava, mahofa, jiba, dagla, miz, qal'a, chopqin, xandaq kabi narsa-buyum nomlaridan bir necha o'rinda foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Chopqin- tig'li qurol bilan yoppasiga chopish, kesish, qirg'in. Bu istiorizm Abdulatif tomonidan qo'llanilib, egallab olgan hududning tinch aholisini mol-mulkini talash, qilichdan o'tkazish, zo'ravonlikka, ya'ni chopqinga ruxsat beradi. Ulug'bek bundan xabar topgach esa o'zini quyidagicha oqlaydi:"- Hazrat otajon, men faqat bir kunlik chopqinga rozilik berdim. Axir Sohibqiron bobom Oltin O'rdada To'xtamishxon ustidan g'alaba qozonganda...[5]" deya vaj ko'rsatadi. Ulug'bek esa bu yer o'z ona tuproqlari ekanligini ta'kidlaydi. Asar davomida Abdulatifning bunday beboshligini ko'rsatib beruvchi uning mana shu bir kunlik chopqinga ruxsat berishida ham ko'rinadi.

Asarda qo'llanilgan arxaik so'zlar: kadxudo (qishloq oqsoqoli), murshid (tariqat saboqlarini o'rgatuvchi pir ustoz) shaxs nomlari, sayisxona (otxona), borgoh, xirgoh, mashvarat, qutqu, kumush dovot (siyohdon), izdihom, olchoq, lomakon, diq, qalamvariga olmoq, musohaba, kushoyishi kor, sahv qildingiz kabi so'zlari keltirilgan. Asarda ikki bor kelgan izdihom so'zi e'tiborimizni tortadi. “ Qal'a devori ustiga chiqqan Shodimulkbegimning pastda turgan izdihomga yirik-yirik oltin tangalarni xazon yaproqlariga o'xshatib sochayotganini...[5]” bu jumlada odamlar to'dasiligi aniq, ammo qaysi toifa ekanligi saroy ahlimi yoki oddiy xalq noaniqroq bo'lgan. Adibning boshqa “Yulduzli tunlar” asariga ham murojaat qilsak, “Bu yerda ham bir necha yuz kishilik izdihom besh-oltita xon navkarlarini o'rab olib, toshbo'ron qilmoqda edi.” Demak, bu jumlalardan ma'lumki, har qanday odamlar to'dasi, mansabidan qat'iy nazar izdihom atamasi ishlatilgan.

Ko'rinib turibdiki, tarixiy va arxaik so'zlarning ko'pi arabcha hamda forscha bo'lgan. Bu albatta arablar bosqini ta'siridir. Forscha so'zlardan biri asarning bosh qahramoni Gavharshodbegim tilidan aytilgan “Kushoyishi kor bergaysen” so'zidir.

Kushoyishi- biror qiyin ishning oson hal bo'lishi, yengil bitishi, kor- ish ma'nosida “ Kushoyishi kor bergaysen- ishimni oson qilgaysen” bilan barobardir.[4]

Tilimizda unitilib ketilayotgan so'zlarning o'rne juda ham muhim. Chunki biz bu bilan tariximizni va o'zligimizni saqlab qolamiz. Tilimizning tilla sandig'idagi bu boyliklarni faqatgina adabiyotlarda emas, balki jonli tilimizda ham qo'llashimiz maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Anvarjanova Sh. Tilshunoslikda eskirgan so'zlarning kelib chiqishi va ularning qiyosiy tahlili. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences, 2022.

2.Atabayev S. Tarixiy va arxaik so'zlarning badiiy matn tarkibidagi uslubiy xususiyatlari. Academic research in modern science jurnali, 2023

3.Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish.—Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.- 118 b

4.Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. O'zbek tilining izohli lug'ati.—Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021.

5.Qodirov P. Ona lochin vidosi. —Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018.